

MAKTAB PSIXOLOGINING PROFESSIOGRAMMASI: QARASHLAR, TAMOYILLAR VA TALABLAR

Teshaboyev Inomjon Adxamjonovich

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
tayanch doktoranti; +998996091282; inomjon1282@gmail.com*

Zamonaviy dunyoda kechayotgan intensiv ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik jarayonlar har bir kasb egalari oldiga yangicha talablar qo'ymoqda. Har bir kasb professiogrammasini qaytadan ko'rib chiqish ehtiyoji tug'ilmoqda.

Professiogramma ma'lum bir kasbga tegishli bo'lgan mehnat jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari, kasbiy faoliyat turlari, mutaxassisdan talab qilinadigan kasbiy kompetensiyalar va kasbiy standartlarni o'z ichiga oladi.

Mazkur masalada ilmiy tadqiqot olib borgan A.A.Turg'unovning fikricha: "ma'lum mehnat jarayonini tashkil etuvchi obyektlar belgilari, mehnat subyekti, mehnat predmeti vazifalari, vositalari va sharoitlari" nazarda tutiladi[1].

Amaliy psixologiyada esa professiogramma shaxsning kasbiy faoliyatini o'rganish va tavsiflash jarayonining natijasi deb talqin qilinadi. Shuningdek, professiogramma faqatgina kasbiy mehnat jarayonining tashqi tarkibiy qismlarini o'z ichiga olibgina qolmay, mehnat jarayonining har bir aspektini tavsiflashi, spetsifik jihatlarini ko'rsatib berishi va mehnat subyektining kasbiy muhim fazilatlari yig'indisini tavsiflashga qaratilgan psixologik va psixofiziologik talqindan tashkil topishi zarurati ta'kidlanadi. Agar bunday bo'lmasa mutaxassisning ishda muvaffaqiyatga erishishiga hissa qo'shadigan fazilatlar yoki mehnat faoliyati muvaffaqiyati uchun to'sqinlik qiladigan subyektiv omillarni tavsiflash imkoniyati bo'lmaydi[2].

Professiogramma odatda bir nechta asosiy qismlardan iborat bo'ladi:

1. Lavozim yoki kasb nomi: Bu yerda professiogramma yaratilayotgan pozitsiya nomi ko'rsatiladi.

2. Lavozim tavsifi: Ushbu qismda xodim tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar va funksiyalar batafsil tavsiflanadi. Bu umumiy vazifalar va maxsus vazifalarni o'z ichiga olishi mumkin

3. Majburiyat va funksiyalar: Xodim bajarishi kerak bo'lgan aniq vazifalar va majburiyatlar, shu jumladan har bir vazifaning ko'lami va ustuvorligi ko'rsatiladi.

4. Talab qilinadigan malakalar: Ushbu lavozimdagi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tavsifi. Bunga ta'lim darajasi, ish tajribasi, portfoliosi, maxsus sertifikatlari va boshqalar kiradi.

5. Mehnat sharoitlari: ish tartibi, ish joyi, jismoniy va psixologik talablar, shuningdek, mumkin bo'lgan xavflar va muayyan ish sharoitlari haqida ma'lumotlar aks etadi.

6. Xodimdan kutilmalar: Lavozim vazifasiga muvofiq bo'lgan shaxsiy fazilatlar to'plami, masalan kommunikativlik, kollaborativlik, mas'uliyat, tashkilotchilik va boshqalar.

7. Faoliyat natijalarini baholash: ma'lum bir lavozimdagi xodimning ish faoliyatini baholash uchun qo'llaniladigan mezonlar va usullar.

Shu bilan birga yana bir muhim aspekt mavjudki, buni albatta e'tiborga olish kerak. Tadqiqotchi A.A.Turg'unov: "Professiogrammaning muhim tarkibiy qismi — psixogramma bo'lib, u mutaxassisning motivatsion, iroda va emotsional sohasining tavsifi hisoblanadi. Psixogramma — kasbning psixologik portreti bo'lib, u aniq kasbda dolzarb bo'lgan psixologik funksiyalar guruhi bilan namoyon bo'ladi"[1].

Bugungi kundagi maktab amaliyotchi psixologlarining O'zbekiston ta'lim tizimi kontekstida yaratiladigan professogrammasi va uning tarkibiy qismi sifatida qaralayotgan psixogrammasi quyidagi zaruratlar oqibati sifatida qaralishi maqsadga muvofiq:

1. Maktab amaliyotchi psixologining ish faoliyatiga bo'lgan yuqori darajadagi ijtimoiy ehtiyoj;
2. Maktab amaliyotchi psixologlarining ish faoliyati huquqiy, ilmiy-uslubiy jihatlardan yetarli darajada tartibga solinmaganligi;
3. Maktab amaliyotchi psixologlari kasbiy faoliyatda mazkur ixtisoslikning o'ziga xos xususiyatlarini bilish zarurati;
4. Maktab amaliyotchi psixologlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va kasbiy malakasini oshirish tizimida yagona konseptual yo'nalishning yo'qligi;
5. Maktab amaliyotchi psixologining mehnat faoliyati natijalarini baholashning aniq tizimi mavjud emasligi;
6. Maktab amaliyotchi psixologlarining ish samaradorligini oshirish muammosi hal etilmaganligi.

Shu o'rinda psixologlarning professiogrammasini ishlab chiqishdagi spetsifik jihatga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. Bu psixologlarning kasbiy-ahloqiy kodeksidir. Masalaning muhim jihati shundaki, professiogramma va psixogramma ishlab chiqishda, boshqa kasblar professiogrammasidan farqli o'laroq, mazkur kodeks tamoyillari bazis vazifasini o'tashi zaruriy shart hisoblanadi. Mazkur tadqiqot doirasida Amerika psixologlar assotsiatsiyasi (American psychological association) va Rossiya psixologlar hamjamiyati (Российское психологическое общество) tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy-ahloqiy kodekslar tahlil qilindi [3;4].

Xususan, Amerika psixologlar assotsiatsiyasining kasbiy ahloqiy kodeksida psixologlar o'z ishlarini mas'uliyatli va ahloqiy jihatdan adekvat tarzda olib

borishlarini ta'minlash uchun bir nechta ahloqiy tamoyillarga rioya qilishlari belgilangan. Ushbu tamoyillar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Foyda keltirish va zarar keltirmaslik;
2. Sadoqat va mas'uliyat;
3. Halollik;
4. Adolat;
5. Inson huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish;
6. Kompetensiya.

Bu tamoyillar Amerika psixologlar assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan va shunga o'xshash ahloq kodeksiga butun dunyo bo'ylab psixologik tashkilotlar amal qiladi.

Rossiya psixologlar hamjamiyati ham psixologik faoliyat yo'nalishlarida kasbiy-ahloqiy tamoyillar va standartlarni belgilaydigan ahloq kodeksiga ega. Bu kodeksning kodeksining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsning qadr-qimmatini huquqi va erkinligini hurmat qilish;
2. Kasbiy kompetensiya;
3. Halollik;
4. Maxfiylik;
5. Zarar bermaslik;
6. Tolerantlik;
7. Kasbiy munosabatlar.

Maktab amaliyotchi psixologining kasbiy professiogrammasi yuqoridagi etik tamoyillar doirasida shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir.

Mazkur jihatlarni inobatga olgan holda, maktab amaliyotchi psixologining kasbiy professiogrammasida quyidagi jihatlar bazis vazifasini bajarishi kerak.

1. Kasbiy mas'uliyat;
2. Kasbiy talab. Maktab amaliyotchi psixologi sifatida ishlash uchun kamida soha bo'yicha bakalavr darajasiga ega bo'lishi kerak (O'zbekiston)[6]. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda, xususan AQSH, psixologiya sohasida magistr yoki doktorlik darajasiga ega bo'lish talab etiladi[7].

3. Asosiy ko'nikmalar va malakalar:
 - psixologik-pedagogik baholash ko'nikmalari;
 - psixologik maslahat va korreksiya amaliyotini amalga oshirish ko'nikmalari;
 - kommunikativ va kollaborativ ko'nikmalar
 - ma'rifiy va populizatorlik ko'nikmalari;
 - ekstremal vaziyatlarda faoliyat ko'rsata olish ko'nikmasi

Maktab amaliyotchi psixologining professiogrammasi shaxsning psixik rivojlanishini ta'minlash va psixik salomatligini saqlash yo'nalishida malaka, ko'nikma va majburiyatlarining o'zaro muvofiqlashtiradigan hujjatdir. Tan olish kerakki, maktab amaliyotchi psixologlari o'zlarining dinamik va ko'p qirrali faoliyati davomida maktablarimizdagi o'quvchilarning har tomonlama o'sishi va muvaffaqiyatiga katta hissa qo'shadilar. Ta'limning kelajagini o'ylar ekanmiz, maktab amaliyotchi psixologlarining o'quvchilarning psixik rivojlanishiga ta'siri, shubhasiz, muhim bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А. А. Тург'унов. Kasb-hunarga yo'naltirish (O'quvchilarni kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash). O'quv qo'llanma. Toshkent – 2019.
2. В.Штерн. Дифференциальная психология и её методические основы. Москва: Наука, 1998.
3. www.apa.org/ethics/code
4. psygus.ru/rpo/documentation/ethics.php
5. Иванова Е. М. Системно-деятельностный подход к психологической профессиографии : дис. – М. : [МГУ им. МВ Ломоносова], 2004.
6. lex.uz/docs/4417140
7. www.nasponline.org/about-school-psychology/a-career-that-makes-a-difference

